

UDC: 347.634/.637(045)(575.1)

OTA-ONALIK HUQUQI VA MAJBURIYATLARIGA OID TUSHUNCHALARGA YURIDIK TAVSIF: NAZARIYA VA AMALIYOT

Xayitov Muzaffar Muxamadjonovich,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy
kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0003-4012-0755
e-mail: muzaffarustoz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilaning mustahkam bo'lishi, farovon oilaning qaror topishida muhim o'rin tutgan ota-onalik huquqlari va majburiyatlari, ularga rioya qilinishining o'rni va ahamiyati tadqiq qilingan. Oila, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar muhim huquqiy kategoriya sifatida konstitutsiyaviy normalar darajasida tartibga solinganiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ota-onalik huquqi va majburiyatlariga doir nazariy hamda amaliy jihatlar, mazkur munosabatlarga oid ayrim muammolar o'rganilgan. Maqolada ota-onalik huquqi tushunchasini tashkil qiluvchi tarkibiy elementlar, ya'ni otalik, onalik, huquq kabi tushunchalar tadqiq etilib, mazkur tushunchalarga oid mualliflik yondashuvlari ilgari surilgan. Ota-onalik majburiyatlarini bajarmaslik, ota-onalik huquqlarining suiiste'molligi kabi salbiy holatlar tahlil qilindi. Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning oqilona nisbatini saqlash, mazkur munosabatga doir qonunlarga rioya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surildi. Ota-onalik huquqi va majburiyatlarini bilish, mazkur tushunchalar zamiridagi yuksak mas'uliyatni tushunish, ota-onalik huquqi va majburiyatlariga oid normalarga rioya qilmaslik muayyan javobgarliklarga sabab bo'lishini anglash, bolalarning himoyaga, qo'llab-quvvatlashga hamda muhofazaga muhtoj ekanligini tushunish ota-onalik huquqi va majburiyatlariga rioya qilinishida muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: oila, ota-ona, otalik, onalik, huquq, majburiyat, qadriyat, ta'minot, huquqiy ong.

ЮРИДИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПОНЯТИЙ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ОБЯЗАННОСТЕЙ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Хайитов Музаффар Мухамаджонович,
самостоятельный соискатель Высшей школы судей
при Высшем судебном совете Республики Узбекистан

Аннотация. В статье исследуются роль, значение родительских прав и обязанностей и их соблюдения как важного фактора в создании здоровой семьи, являющейся основным звеном общества. Автор обращает внимание на то, что регулирование отношений в семье, между родителями и детьми является важной правовой категорией на уровне конституционных норм. При этом изучались теоретические и практические аспекты родительских прав и обязанностей, а также некоторые проблемы, связанные с этими правоотношениями. В статье исследуются структурные элементы, составляющие понятие родительских прав, понятия отцовства, материнства, права отца и матери и выдвигаются авторские подходы к этим понятиям. Были проанализированы такие негативные ситуации, как

невыполнение родительских обязанностей, злоупотребление родительскими правами. Даны предложения сохранить разумное соотношение отношений между родителями и детьми, усовершенствовать систему соблюдения законов, связанных с этими отношениями. Уделено внимание таким важным аспектам реализации родительских прав, как знание родителями своих прав и обязанностей, понимание ими высокой ответственности, лежащей в основе этих понятий, понимание того, что несоблюдение норм родительских прав и обязанностей влечет за собой определенную ответственность, что дети нуждаются в защите, поддержке и опеке.

Ключевые слова: семья, родители, отцовство, материнство, право, обязанность, ценность, безопасность, правосознание.

LEGAL DESCRIPTION OF THE CONCEPTS OF PARENTAL RIGHTS AND RESPONSIBILITIES: THEORY AND PRACTICE

Khayitov Muzaffar Mukhamadjonovich,

Independent Researcher,

Higher School of Judges

under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article explores the role and importance of parental rights and responsibilities and their observance as an important factor in creating a healthy family, which is the main link in society. The author pays the attention to the fact that the regulation of relations in a family, between parents and children, is an important legal category at the level of constitutional norms. The theoretical and practical aspects of parental rights and responsibilities and some of the problems associated with these legal relations were studied. The article examines the structural elements that make up the concept of parental rights, the concepts of paternity, maternity, and the rights of the father and the mother and puts forward the author's approaches to these concepts. Negative situations such as the non-fulfillment of parental responsibilities and abuse of parental rights were analyzed. Proposals are given to maintain a reasonable relationship between parents and children and to improve the system of compliance with the laws related to these relationships. Attention is paid to such important aspects of the implementation of parental rights as parents' knowledge of their rights and responsibilities, their understanding of the high responsibility underlying these concepts, understanding that non-compliance with the norms of parental rights and responsibilities entails a certain responsibility, that children need protection, support, and care.

Keywords: family, parents, paternity, maternity, right, duty, value, security, legal awareness.

Kirish

Ma'lumki, xalqimiz asrlar osha ardoqlab kelayotgan oila va oilaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilib, uning farovonligini ta'minlash, mustahkam oilani qaror toptirish, moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, uni muhofaza etish davlatimiz olib borayotgan islohotlarning bosh yo'nalishlaridan biriga aylangan. Oila kishilik jamiyatida qator vazifalarni bajarish orqali jamiyat taraqqiyotida asosiy o'rinni egallab kelgan. Ayniqsa, oilaning har bir davlat, millat kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'stirib-ulg'aytirish, ularga ta'lim-tarbiya be-

rishdek muhim vazifasi unga nisbatan doimo yuksak e'tiborni taqozo qilgan.

Ta'kidlash joizki, oilaning jamiyatda tutgan o'rni naqadar muhimligi nuqtayi nazardan asosiy qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila munosabatlari doir alohida bob va konstitutsiyaviy normalar qabul qilingan. Bu esa huquqning mustaqil sohalaridan biri sifatida ota-ona va farzand, farzandlikka oluvchilar hamda farzandlikka olinuvchilar o'rtasidagi mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi oila huquqi sohasining huquqiy

asoslari avvalo konstitutsiya darajasida mustahkamlanganligini anglatadi.

Oilaning farovonligi, oilaviy qadriyatlarning mustahkam bo'lishi, oilada farzandning sog'lom, ma'nan barkamol bo'lib kamol topishi, albatta, ota-onalik huquqlari va majburiyatlariga risoladagidek rioya qilinishiga uzviy bog'liq. Biroq jamiyatda ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilayotgan, oilada shafqatsiz munosabatda bo'layotgan, ota-onalik majburiyatlarini bajarmayotgan insonlar ham borki, mazkur holat ota-ona va farzand munosabatlariga oid yuksak qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Buning sabablari qatorida, shubhasiz, ota-onalik huquqi va majburiyatlarini bilmaslik, ota-onalik majburiyatlarini bilsa-da, ularga rioya etmaslik, ota-onalik huquqi va majburiyatlari yuzasidan ta'sirchan mexanizmlarning faol ishlamasligi kabilarni aytib o'tishimiz mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda ota-onalik huquqi va majburiyatlarini tadqiq etish, ularga rioya qilinishiga oid huquqiy mexanizmlarni takomillashtirib borish zarurati ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida ota-onalik huquqi, ota-onalik majburiyatlarining tarkibiy elementlari bo'lgan alohida tushunchalarning har biri tadqiq qilindi; konstitutsiya, oila qonunchiligida belgilangan ota-onalik huquqi va majburiyatlari yuzasidan fuqarolarning huquqiy ong darajasi o'rganildi; mazkur ijtimoiy munosabatga doir ba'zi muammolar tahlil qilindi; yakunda mavzuga oid mualliflik yondashuvlari ilgari surildi.

Mazkur maqola ota-onalik huquqi va majburiyatlarini anglash va tushunish, ularni to'g'ri talqin qilish, unga doir huquqiy normalarni o'rganishda qo'l keladi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, mantiqiy, statistik, sotsiologik, formal-yuridik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, ota-onalik huquqi va majburiyatlari jamiyatda muhim huquqiy kategoriya sifatida konstitutsiya darajasida qayd qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" deb belgilab qo'yilgan. Mazkur huquqiy normaning sharhida mutaxassislar "boqish" deyilganda asosan yedirib-ichirishni tushunish lozimligini, "moddiy ta'minot" o'z ichiga yeb-ichishdan tashqari bo'ladigan xarajatlar: kiyim-kechak, yashash uchun uy-joy, iqtisodiy ma'nodagi keng tushunchalarni qamrab olishini ta'kidlashgan [1].

Majburiyat so'zi lug'atda majburlik, burch ma'nolarida kelib, g'ayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish, holat va ehtiyojni anglatadi [2]. Bola haqida g'amxo'rlik qilish, unga ta'lim-tarbiya berish ota-ona uchun faqat axloqiy qoida bo'lib qolmasdan, balki konstitutsiyaviy burch ham hisoblanadi. Mualliflarning yondashuviga qo'shilgan holda asosiy qomusimiz va uning sharhida keltirilgan fikrlar orqali ota-onalarga farzandga nisbatan moddiy va ma'naviy majburiyatlar yuklatilganligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Muqaddas islom dini ta'limotlarida ham bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchi sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, mazkur ma'naviy majburiyatga daxldor "farzandlaringizni hurmatlang va ularning odobini go'zal qiling" ma'nosidagi hadis ham rivoyat qilingan [3].

Ota-onalik huquqi va majburiyatlarini anglashda, eng avvalo, uning tarkibini tashkil etuvchi elementlarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni otalik, onalik, huquq, ota-onalik huquqi bir butunlikda ota-onalik huquqining mazmun-mohiyatini ochib beradi.

O'zbek tilida otaning o'z farzandiga bo'lgan munosabatlari va shu munosabatlarga bog'liq holatlar otalik ma'nosini anglatga, homiladorlik, bolalarni tarbiyalash va shunga

bog'liq ona burchlariga onalik deb aytiladi [2, 126-, 152-b.].

Yuridik adabiyotlarda onalik deyilganda o'zaro nikohda bo'lgan yoki o'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan (er-xotin) tug'ilgan bolaning haqiqatda onasi ekanligini tasdiqlash va belgilash fakti tushuniladi [4].

Soha mutaxassislaridan D. Shamsiyeva-ning fikricha, otalikni belgilash oila huquqi institutlaridan biri bo'lib, o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolalarning nasl-nasabini belgilovchi vosita sanaladi [5]. Otalik va onalikning mazkur ta'riflari orqali otalik hamda onalikning mohiyati muayyan darajada ochib berilgan. Fikrimizcha, otalik tushunchasining keltirilgan ta'riflari nisbatan tor doirani, ya'ni otalikning o'zaro nikohda bo'lgan yoxud o'zaro nikohda bo'lmagan holatlarda belgilanishi faktini ifodalagan. Mazkur ikki holatdan tashqari otalik sudning hal qiluv qarori asosida yoxud onaning ko'rsatmasi asosida belgilanishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan otalik tushunchasiga ta'rif berishda uning barcha jihatlarini qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

Otalik hamda onalik tushunchasi to'g'risida qayd etib o'tilgan ta'riflar soha olimlariga xos bo'lib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur tushunchalarga oid dispozitiv normalar mavjud emas. Tadqiqot davomida o'rganilgan yuridik adabiyotlarda otalik hamda onalik tushunchalari deyarli tadqiq qilinmagan. Mazkur sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy qonun bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham ushbu tushunchalarning ta'riflari o'z ifodasini topmagan. Oila kodeksining 4-moddasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida ekanligi, onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovorligi qayd etilgan xolos.

Bizningcha, mazkur tushunchalar bolaning nasl-nasabini belgilashning muhim vositasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda otalik (onalik) tushunchalarini

izohlashda quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari suramiz: otalik (onalik) bu – ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash vositasi, otaning (onaning) tug'ilgan bolaning otasi (onasi) ekanligi fakti qonunda belgilangan asoslarga muvofiq fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida qayd etilishidir.

Ta'kidlash joizki, otalik hamda onalik bolaning nasl-nasabini belgilash, bola va ota-ona o'rtasida huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish vositasi hisoblanadi. Bizningcha, otalik va onalikning mazmun-mohiyati ayni vaqtda bola manfaatlarini ifodalash, ularni muhofaza etish, har bir bola uchun baxtli bolalikni ta'minlash, har bir ota-onaning oilaga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, bola ota-onasini his qilishi kabi tushunchalar bilan uyg'un hisoblanadi.

Ota-onalik huquqi tushunchasining asosiy elementlaridan biri sifatida huquq iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llanadigan tushuncha bo'lib, "haq", "haqiqat" so'zlaridan olingan. Professor X. Odilqoriyevning fikricha, huquq davlat tomonidan o'rnatiladigan va qo'riqlanadigan, mamlakat aholisining umumiy va shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiluvchi umummajburiy xulq-atvor qoidalarini tizimidir [6]. Sh. Saydullayevning ta'kidlashicha, huquq davlat tomonidan himoya qilinadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalarining yig'indisidir [7].

Mualliflarning huquq tushunchasiga bergan ta'riflariga qo'shilgan holda ta'kidlab o'tmoqchimizki, huquq tushunchasi inson tafakkurining mahsuli sifatida paydo bo'lgan davrdan buyon doimiy o'rganish, rivojlantirish, tasniflash, tadqiq etish, takomillashish kabi jarayonlarning ta'sirida yanada yangicha mazmunga ega bo'lib bormoqda. Dastlab umumiy tarzda talqin qilingan huquq muhim ijtimoiy qadriyat sifatida tarixiy taraqqiyot

bosqichida takomillashib, tabiiy va pozitiv shakllarga, pozitiv huquqlar esa yagona va mustaqil huquq tizimlariga, huquq tizimlari esa ijtimoiy hayot jabhalariga moslashgan holda huquq sohalari va huquq institutlariga bo'linish tendensiyasi davom etmoqda. Ota-onalik huquqi va majburiyatlari ham huquqiy munosabatlarning takomillashib borishi natijasida huquqning mustaqil instituti sifatida shakllangan.

Ota-onalik huquqi yuksak ijtimoiy qadriyat sifatida davlat tomonidan oila qonunchiligida huquqiy tartibga solib qo'yilgan. Oila huquqi sohasiga taalluqli yuridik adabiyotlarda ota-onalik huquqlari bolalarning kelib chiqishlariga asoslanib, tegishli qonun bilan belgilangan tartibda bola tug'ilganligi FHDY organida yozilishiga asoslanishi qayd etilgan [8]. Mualliflarning mazkur ta'rif ota-onalik huquqi mazmun-mohiyatini ma'lum darajada o'zida ifodalagan. Ushbu ta'rif otalik va onalik huquqi yuzaga kelishining asoslaridan biri, ya'ni bolaning tug'ilganligi faktini qamrab olgan.

Ota-onalik huquqlari G.O. Belanovanning ilmiy ishlarida quyidagicha talqin qilingan: ota-onalik huquqlari pozitiv huquqlar bo'lib, bolaga nisbatan ijobiy maqsadlarga erishish, bolani tarbiyalash usullarini erkin tanlash, bola huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini ta'minlashda namoyon bo'ladi [9]. Muallifning ta'rifida qayd etilgan ota-onalik huquqining pozitiv huquqlar ekanligiga oid yondashuviga qo'shilamiz. Chunki pozitiv huquqlar davlat tomonidan qabul qilingan normalarda, qonunchilikda va boshqa manbalarda o'z ifodasini topgan huquqlar hisoblanadi [10, 107-b.]. Keltirilgan ta'rifda ota-onalik huquqining yana bir o'ziga xos xususiyati qayd etilgan, ya'ni mazkur huquqlar erkin yondashuvga imkon beradi, bolaning qobiliyati, bo'lg'usi maqsadlaridan kelib chiqib ota-ona tomonidan tanlanadi. Masalan, oila qonunchiligida belgilangan ota-onaning bolaga ta'lim-tarbiya berish huquqi aynan erkin tanlovga imkon beruvchi huquqlar sirasi-

ga kiradi. G. Belanovanning ota-onalik huquqiga nisbatan ilgari surgan ta'rifini ijobiy baholasak-da, biroq uning ta'rifida ota-onalik huquqining ba'zi muhim jihatlari qamrab olinmagan. Jumladan, ota-onalik huquqlari ayni vaqtda majburiyat yuklaydigan huquqlar sirasiga kiradi. Oila qonunchiligida ota-ona bolaga ta'lim-tarbiya berish huquqiga ega va tarbiyalashi shart deb belgilab qo'yilgan. Mazkur qoida asosida bola huquq va qonuniy manfaatlarining ta'minlanishi ota-onaga qaratilgan bo'ladi deb xulosa qilishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida keltirilishicha, ota-onalik huquqi deyilganda, ularga bolasini voyaga yetguncha tarbiyalash, uning manfaatlarini himoya etish va unga vakillik qilish, bolasini boshqa shaxslardan talab qilib olish, uning farzandlikka olinishiga rozilik berish va h.k.lar uchun berilgan huquqlar tushunilmog'i lozim. Mualliflarning ota-onalik huquqlaridan ayrim namunalar keltirish asosida ta'rif berishiga oid yondashuvga qo'shilib bo'lmaydi, chunki bunday yondashuv orqali qolgan huquqlarni ham ta'rif doirasida qamrab olish ta'rifning qamrovi kengayishiga, tushunarsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Qayd etilgan ma'lumotlar asosida ota-onalik huquqiga quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari suramiz, ota-onalik huquqi – bolaning qonuniy ota-onasi sifatida qayd qilingan shaxslarda bola bilan birga yashash, unga ta'lim-tarbiya berish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha yuzaga keladigan, ayni vaqtda bolaga nisbatan ota-onaga majburiyat yuklaydigan pozitiv huquqlardir.

Darhaqiqat, oila qonunchiligiga muvofiq, ota-onalik huquqlari ayni vaqtda ham huquq, ham majburiyat sifatida talqin qilinadi. Oila

kodeksining 73-moddasida quyidagilar qayd qilingan: “Ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart”.

Mutaxassis olimlarning ta’kidlashicha, yuridik majburiyat – huquqiy normalarda ko‘zda tutilgan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilari tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan huquqiy xatti-harakatlar doirasidir [10, 231-b.]. Shaxsning yuridik majburiyatlarini o‘tashi, o‘z navbatida, huquqiy munosabatning ikkinchi ishtirokchisining subyektiv huquqi amalga oshishini ta’minlaydi. Mazkur fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, demak, ota-onalarning farzandlari oldidagi majburiyatlarining bajarilishi, o‘z navbatida, farzandlarining huquqlarini ta’minlash vositasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan ota-onalik huquqlari ham huquq, ham bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlardir. Shundan kelib chiqqan holda qayd etish kerakki, oilaviy huquqiy munosabatlarda farzand huquqlarining amalga oshishi ota-onaga qaratilgan bo‘ladi, ota-onani esa bu jarayonda farzandga nisbatan majburiyat o‘tovchi deb baholaymiz.

Ota-onaning farzandni boqishi ayni vaqtda uning zarur moddiy ehtiyojlarini ta’minlash vositasidir. Soha mutaxassislaridan M. Yuldashhev ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish majburiyatini alohida qayd etib o‘tgan [11]. Albatta, voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta’minot olish huquqiga ega.

Ta’kidlash joizki, ota-onalik majburiyatlarini bajarish farzand kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalik majburiyatlari bajarilmasligi to‘g‘risida Sh.R. G‘ofurov va R.N. Raxmanovlar ota-onasi tomonidan rad etilgan, e’tibor ko‘rsatilmagan bolaning ruhiyatida dastlab o‘ziga ishonchsizlik, keyin boshqalarga ishonchsizlik, o‘ziga bo‘lgan bahoning pasayishi, odamovilik, har bir narsa-

ga, hatto do‘stona munosabatlarga ham shubha bilan qarash, nafrat shakllanishini qayd etib o‘tishgan [12]. Mualliflarning mazkur fikriga qo‘shilgan holda bunday salbiy holatlar bolaga nisbatan ota-onalik majburiyatlarini bajarmaslik bilan uyg‘unligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan adabiyotlar, statistik ma’lumotlar bugungi kunda ota-onalik majburiyatlarining bajarilishi borasida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda respublikamizda jami 114 nafar bola chaqaloq savdosidan jabrlangan bo‘lib, ularning deyarli 89 %ini 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etgan; 2018 yilda odam savdosi jinoyatlari ichida chaqaloq savdosining ulushi 38 %ni, 2019 yilda 44 %ni tashkil etgani, 2017–2020-yillardagi holatlar tahliliga ko‘ra, o‘z chaqalog‘ini sotgan ayollarning 17 %i homilani yashirish, 52 %i esa moddiy manfaat topish maqsadida ushbu jinoyatlarini sodir etgan [13]. Bundan tashqari, har yili jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan bolaning ta’minoti yuzasidan aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan uch mingga yaqin shaxs ustidan sud ishi ko‘rib chiqilmoqda [14].

Mazkur ijtimoiy salbiy hodisalar ota-ona bo‘lgan fuqarolarning ota-onalik huquqi va majburiyatlari borasida huquqiy ongi yetarli darajada emasligiga ham uzviy bog‘liq. Huquqiy ong – huquqni anglash, tushunish bo‘lsa, huquqiy madaniyat huquq bilan tartibga solingan, o‘rnatilgan qoidalarga rioya etish demakdir. Tadqiqot davomida respondentlar o‘rtasida “Oila qonunchiligida belgilangan ota-onalik huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumotga egamisiz?” deb qo‘yilgan savolga respondentlarning 53 %i, “Ha, ma’lumotga egaman” deb javob bergan bo‘lsa, 17 %i “Ma’lumotga ega emasman”, 30 %i esa “Qisman ma’lumotga egaman” deb javob berishdi.

Bizningcha, ota-onalik huquqi va majburiyatlarini bilish, mazkur tushunchalar

zamidagi yuksak mas'uliyatni tushunish, ota-onalik huquqi va majburiyatlariga oid normalarga rioya qilmaslik muayyan javobgarliklarga sabab bo'lishini anglash, bolalarning himoyaga, qo'llab-quvvatlashga, muhofazaga muhtoj ekanligini his qilish ota-onalik huquqi va majburiyatlariga rioya qilinishida muhim o'rin tutadi. Bu borada professor F. Muhitdinova bolalar yoshligi, qabul qilish qobiliyati rivojlanishi, uning hali mustaqil hayotga tayyor emasligi tufayli ular har tomonlama g'amxo'rlik va himoyaga, shu bilan bir qatorda, huquqiy himoyaga muhtoj ekanligini qayd etib o'tgan [15].

Xulosalar

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga otalik (onalik), ota-onalik huquqlari tushunchalariga oid dispozitiv norma kiritilishi mazkur tushunchalarni bir xil talqin qilish va qo'llashga imkon yaratadi;

2. Ota-onalik huquqi va majburiyatlariga oid jamiyatlardagi huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish maqsadida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish va boshqa mas'ul idoralar orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish hozirda mavjud ijtimoiy-salbiy holatlarning oldini olishga muayyan darajada xizmat qiladi;

3. Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan, ota-onalik majburiyatlarini bajarmayotgan ota-onalarga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki uni cheklash huquqiy ta'sir choralari oida oila qonunchiligidagi huquqiy normalarni hamda ularning qo'llanishiga doir huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, bir tomondan, ota yo ona, yoki ularning har ikkisi uchun oila huquqiy jazo chorasini; ikkinchi tomondan, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va muhofaza etish vositasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh [Commentary on the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. The team of authors. Responsible ed. A.A. Azizkhojayev. Tashkent, TSUL Publ., 2008, p. 250.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2007, vol. 2, p. 522.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Sog'lom bola [A healthy child]. Tashkent, Hilol-Nashr Publ., 2014, p. 88.
4. Yuridik atamalarning qomusiy lug'ati [Glossary of legal terms]. Responsible ed. Kh.R. Rahmonkulov. Tashkent, Sharq Publ., 2003, p. 268.
5. Shamsiyeva D. Otalikni belgilash tushunchasi [The concept of establishing paternity]. 2014. Available at: <https://sirdaryo.adliya.uz/sirdaryo/uz/publikatsi/>.
6. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat Publ., 2018, p. 169.
7. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, TSUL Publ., 2018, p. 84.
8. Otaxojayev F.M., Yuldasheva Sh.R. Oila huquqi [Family law]. Tashkent, 2009, p. 165.
9. Belanova G.O. Ponyatiye roditel'skikh prav v rossiyskom semeynom prave [The concept of parental rights in the Russian family law]. *Zakon i pravo – Law and Law*, 2021, no. 1, p. 48.
10. Yusuvaliyeva R., Axmedshayeva M., Najimov M. et al. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Responsible ed. R. Yusuvaliyeva. Tashkent, JIDU, 2019, p. 107.
11. Yuldashev M.M. Ota-ona va bolalarning mulkiy huquqi va majburiyatlari [Property rights and obligations of parents and children]. Available at: <https://jizzax.uz/print:page,1,9593-ota-ona-va-bolalarning-mulkiy-uu-va-mazhburiyatlari.html/>.

12. G'ofurov Sh.R., Raxmanov R.N. Oila turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlardan jabrlanishningsabablari va shart-sharoitlarining ayrim masalalari [Some issues of the causes and conditions of suffering from crimes within the framework of family relations]. *Journal of Legal Research*, 2020, spec. iss., part 2, p. 261.

13. Baby trade in Uzbekistan is increasing year by year. The reasons for such crimes were announced. The speech of the Chairman of the Senate of the Oliy Majlis Tanzila Norboyeva at the meeting of the National Commission for Combating Human Trafficking and Forced Labor. Available at: <https://daryo.uz/2020/12/06/>.

14. Nurberdiyev S. Alimentni undirish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba [Collection of alimony: national practice and foreign experience]. *Adolat socio-political newspaper*, 2019, no. 17.

15. Muhitdinova F. Bolalar huquqlari: milliy va xalqaro normalar [Children's rights: national and international norms]. O'zA, 2019. Available at: www.uza.uz/.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.